

## 5-sinf adabiyot

### 1-CHSB

#### I variant

1. (B – 2). Quyida berilgan tarjimayi hol muallifini aniqlang.

*“Men tug‘ilib o‘sgan, bolaligim o‘tgan joylar Qarshi (qadimgi Nasaf) shahridan besh-o‘n chaqirim shimolroq tomondagi Qo‘ng‘irtov etaklaridir... Bahor kelganda havoni o‘t-o‘lanning yoqimli xushbo‘y hidi qoplar, sharros yomg‘ir quyganda biz tog‘ cho‘qqisi unguridagi kichik-kichik g‘orlarga bekinib olardik”.*

- A) Abdusaid Ko‘chimov
- B) Matnazar Abdulhakim
- C) Abdulla Oripov
- D) Omonulla Madayev

2. (B – 2). Ertaklar haqida **NO**to‘g‘ri ma‘lumot berilgan qatorni toping.

- A) Xayoliy-fantastik tasvir ertaklar syujetida qo‘llanadigan ustuvor usuldir.
- B) “Murod-maqсадiga yetibdi” yakunlamasi ertaklarning an‘anaviy belgisi hisoblanadi.
- C) Ertak kirish qismi, voqealar rivoji, tugallanmadan tashkil topadi.
- D) Ertaklar xalq og‘zaki ijodining dramatik turiga mansub.

3. (B – 2). She‘riy parcha nomi va muallifi to‘g‘ri berilgan qatorni aniqlang.

*“Eh, bechora, yashash nechun,  
Yashnamasang, kulmasang  
O‘z to‘dangdan nega uchding,  
Qaytish yo‘lin bilmasang?!”*

- A) Erkin Vohidov, “Kamtarlik” she‘ri
- B) Matnazar Abdulhakim, “Darsdan so‘ng” she‘ri
- C) Abdulla Oripov, “Miltiraydi mitti yulduz” she‘ri
- D) Abdulla Oripov, “Burgut” she‘ri

4. (Q – 2,4). Ushbu badiiy parcha haqida to‘g‘ri xulosani aniqlang.

***No‘noq** nazmim uchun afv et, xalqim,  
Na olim, na fozil, na so‘z piriman.  
O‘z vaqtida daftar topshira olmay  
Qolgan bolalarning biriman.*

- A) Abdulla Oripovning “Men nechun sevaman O‘zbekistonni” she‘ridan olingan parchada ajratilgan so‘z chiroyli degan ma‘noni anglatadi.
- B) Badiiy parcha Abdulla Oripovning “Burgut” she‘ridan olingan bo‘lib, ajratilgan so‘z hech bir kamchiligi yo‘q degan ma‘noni bildiradi.
- C) Parcha Erkin Vohidovning “Kamtarlik haqida” she‘ridan olingan bo‘lib, ajratilgan so‘z insonlarga xos fazilat nomini bildirib kelgan.
- D) Matnazar Abdulhakimning “Dasrdan so‘ng” nomli she‘ridan olingan parchada ajratib ko‘rsatilgan so‘z epsiz, noshud, uddaburon emas kabi ma‘nolarni bildiradi.

5. (Q – 2,4). Abdulla Oripovning “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?” she‘ri tahlili berilgan javobni toping.

- A) Vodiy larni yayov kezgan shoir Vatanining ko‘klamdagi chiroyini ko‘rib, ko‘nglida bir ajib his paydo bo‘lganini tasvirlaydi.

- B) Vatan tuprog'ini ko'ziga to'tiyo qilgan shoir yer-u osmonni Vatan deya muqaddas va tanho deb ataydi.
- C) Shoir agar Vatan xohlasa, Chambil yurtda Alpomishga navkar bo'lishga ham tayyorligini bildirib o'tadi.
- D) Bu she'rda yurtini bosqinchilardan himoya qilish yo'lida mardlarcha halok bo'lgan yurt o'g'lonlari haqida hikoya qilingan.

6. (Q – 2,4) Ushbu badiiy parcha haqida to'g'ri hukmni aniqlang.

**Ko'k gumbazin** bir chetida

*Bo'shliqlarga urib bosh,*

*Miltiraydi mitti yulduz,*

*Tanholikdan to'kib yosh.*

- A) Matnazar Abdulhakimning “Dasrdan so'ng” nomli she'ridan olingan parchada ajratib ko'rsatilgan so'zning ma'nosi qadimiy inshootlarning tepasida joylashgan dumaloq qismi ma'nosini bildiradi.
- B) Badiiy parcha Abdulla Oripovning “Miltiraydi mitti yulduz” she'ridan olingan bo'lib, ajratilgan so'z yer ustida gumbaz shaklida ko'rinib turadigan havo qatlami; osmon kabi ma'nolarni anglatadi.
- C) Badiiy parcha Abdulla Oripovning “Burgut” she'ridan olingan bo'lib, ajratilgan so'z tog'larning baland qismida qushlar qo'nim topadigan joy, makon kabi ma'nolarni anglatadi.
- D) A'zam O'ktamning “Savobning katta-kichigi yo'q” she'ridan olingan parchada ajratilgan so'z insonlar tomonidan qilinadigan yaxshilikning naqadar ulkanligi ko'chma ma'noda ifodalangan.

7. (Q – 2,4). “Uch og'a-ini botirlar” ertagi voqealari haqida to'g'ri hukmni toping.

- A) Dasturxondagi nonni taxlagan kishining otasi novvoy ekanligini Kenja botir akalariga aytib beradi.
- B) Har kuni safardan so'ng kechki navbatchilikni yoshi kichik bo'lganligi uchun Kenja botir boshlab berar edi.
- C) O'rtancha botir podshohning xazinasiga tushmoqchi bo'lgan o'g'rilar to'dasini hiyla bilan qirib tashlaydi.
- D) Ota yana ham ko'proq boylik orttirish maqsadida farzandlarini xatarli sayohatga jo'natadi.

8. (Q – 2,4). “Uch og'a-ini botirlar” ertagiga xos bo'lgan hukmni aniqlang.

- A) Ertakda botirlar, sherni, ajdarhoni va podshoh xazinasiga tushgan o'g'rilar to'dasini yo'q qilishadi.
- B) Ertakda yaxshilik qilib, qilgan yaxshiligi uchun jazo olgan obraz haqida hikoya uchraydi.
- C) Ertakda podshoh va uning vaziri uch og'a-inilarning suhbatini yashirincha tinglashlari aks etgan.
- D) Uch og'a-ini botirlar burchaklari yo'q shaharda ajoyib-g'aroyib sarguzashtlarni boshdan kechrishadi.

9. (Q – 2,4). “Uch og'a-ini botirlar” ertagiga oid hukmlarni moslashtiring.

1. Podshohga o'z yurtidan olib kelgan tortig'ini beradi va xosiyatlarini birma-bir aytadi.	a) kenja botir;
--	-----------------

2. U barchasidan ko‘ra kenja botirni yaxshi ko‘rar edi.	b) to‘ti;
3. Ariqdan chiqqan ilon voqeasini aytib, o‘sha joyda ikki bo‘linib yotgan ilon tanasini olib kelib ko‘rsatadi.	c) to‘ng‘ich botir;
4. Tunda sher bilan olishganini aytib, belidagi tasmani o‘rtaga tashlaydi.	d) o‘rtancha botir;
	e) podshoh;
	f) ota.

- A) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d  
 B) 1-d, 2-b, 3-a, 4-c  
 C) 1-b, 2-e, 3-a, 4-c  
 D) 1-f, 2-e, 3-d, 4-a

10. (Q – 2,4). Alisher Navoiy qalamiga mansub she‘r mazmuniga mos keluvchi hadisni aniqlang.

*Mo‘min ermastur, ulki iymondin*

*Ro‘zgorida yuz safo ko‘rgay,*

*Toki qardoshiga ravo ko‘rmas –*

*Har nekim o‘ziga ravo ko‘rgay.*

A) Abu Dardo roziyallohu anhu rivoyat qilishicha, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Yaxshi axloqdan ko‘ra tarozida og‘ir keladigan hech narsa yo‘qdir”, deb marhamat qilganlar.

B) Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Sizlardan birortangiz o‘zi uchun yaxshi ko‘rgan narsani birodari uchun ham ravo ko‘rmaguncha mo‘min bo‘la olmaydi”, dedilar”.

C) Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Birovni (kurashib) yiqitgan polvon emas, balki g‘azablangan vaqtida jahlini yutgan polvondir”, dedilar.

D) Abdulloh ibn Amr roziyallohu anhu rivoyat qiladilar: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Birovning ota-onasini so‘kkan odam o‘z ota-onasini haqorat qilgan bo‘ladi”, deb javob berdilar”.

11.(Q – 2,4). Abdusaid Ko‘chimovning “Boychechak” hikoyasi qahramoni Fotima obrazi yuzasidan bildirilgan to‘g‘ri hukmni aniqlang.

A) Uch farzandi urushda halok bo‘lgach, qishloq chetida yolg‘iz o‘zi yashovchi kampir.

B) Odamlarni uzoq yillar turli giyohlar bilan davolagan qishloqlik mehribon ayol.

C) Farzandsiz bo‘lganligi uchun boshqa bolalarni ham suymaydigan ayol.

D) Begona bolani ham o‘z farzandidek yaxshi ko‘ruvchi haqiqiy o‘zbek ayoli timsoli.

12. (Q – 2,4). Matnazar Abdulhakimning “Darsdan so‘ng” nomli she‘ri voqealari yuzasidan to‘g‘ri hukmni aniqlang.

A) O‘quvchilar daftarini yo‘qotib qo‘yganligi uchun o‘qituvchiga topshirolmaydi.

B) O‘qituvchi uyi yaqinligi uchun dugonasinikida qolishni istamaydi.

C) She‘rda “mudhish bir sharpa” deganda bo‘ri nazarda tutilgan.

D) Qishloqdagi chiroqlar va kuchuklar ayolning hayotini saqlab qoladi.

13. (Q – 2,4). Matnazar Abdulhakimning “Dasrdan so‘ng” nomli she‘ridan olingan parchada ajratilgan qism haqida to‘g‘ri hukmni aniqlang.

Uvvos fig'on tutdi qishloqni tongda,

Zamin aza ochdi, zamon yig'ladi.

Daftar topshirmagan **yetti o'quvchi**

**Hammadan ham yomon yig'ladi...**

A) O'qituvchining fojiali o'limiga ular sababchi bo'lib qolishganini tushunishadi.

B) Nazorat ishi daftarlari yonib ketganligi uchun afsuslanishadi.

C) O'qituvchini ranjitishgani uchun qattiq uyalishib, shu ahvolga tushishadi.

D) Darsga tayyorgarlik ko'rishmagani uchun uyalib qolishadi.

14. (M – 5). Quyidagi hadis haqida berilgan to'g'ri mulohazalarni aniqlang.

*Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Birovni (kurashib) yiqitgan polvon emas, balki g'azabl原因an vaqtida jahlini yutgan polvondir", dedilar.*

1. Polvonlik faqat jismoniy kuch bilan bo'ladi, kim ko'proq odamni yiqitsa, o'sha haqiqiy polvondir.

2. Haqiqiy kuch va polvonlik — bu insonning g'azab paytida o'zini bosib, sabr bilan muomala qilishi, jahlini yutib, aql bilan ish tutishidir.

3. Insonning ichki kurashi (g'azab, jahldorlik ustidan nazorat) haqiqiy g'alaba ekanini anglatadi.

4. G'azabni yutish — imon kuchi va yaxshi axloqning belgisi sanaladi.

5. Jahlni yutish zaiflik va zaif insonning xususiyatidir.

6. Polvonlik faqatgina jismoniy janglarda ko'riladi, ruhiy kuch haqida gapirish noto'g'ri.

A) 4, 5, 6

B) 1, 3, 5

C) 2, 3, 4

D) 1, 2, 5

15. (M – 5). Abdusaid Ko'chimovning "Boychechak" hikoyasidan olingan badiiy parcha haqida to'g'ri mulohazani aniqlang.

*"Nimqorong'i uy eshigi g'iyqillab, savatdek sochi ustidan ro'mol o'rab olgan folbin chiqdi. Uzun kamzulini sudragancha hassasini to'qillatib kelayotgan kampir alvastining o'zginasi edi.*

*– O'rgilaylar, bahor keldimi-ya? – demasa, ba'zilar juftakni rostlab qolishlari turgan gap edi.*

*– Bo'lmasa-chi, mana, qarang, – deb boychechakni unga uzatdi Murod.*

*– Aylanib ketay bahor elchisidan. **Bel og'rig'idan qutuladigan bo'libman-da,** – deya folbin boychechakni ko'zlariga surtdi, yaproqlaridan avaylab o'pdi, so'ng qozondek ro'molining qatlarini uzoq timirskilab nimadir oldi-da, Murodga berdi.*

*– Ma, suyunchi!"*

A) Bahor kelishi bilan dalalarda ish boshlanishi folbin tilidan kinoyali tarzda ifodalab berilgan.

B) Boychechak damlamasining bel og'rig'iga shifo bo'lishini bilgan kampirning xursandchiligi ifodalangan.

C) Yolg'iz yashayotgan kampirga qishloq bolalarining kelishi uning beliga go'yoki quvvat bag'ishlagandek xursand bo'ladi.

D) Kampir qishning izg'irinli sovuqda beli og'rur, bahor kelishi bilan kunlar isiganda og'riqlari kamayishini bilib xursand bo'ladi.